

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Umarova Dilafruz Anvarovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy-hissiy rivojlanirish metodikasini takomillashtirish haqida ma’lumot va tavsiyalar berilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar

Kommunikativ savodxonlik, ko‘nikma, malaka, ijodiy qobiliyat, xulq-atvor me’yorlari.

Bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda boshlang‘ich sinflarga ham texnologik ta’limni rivojlanirish zamon talabidir. Bu davrda o‘quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanirish metodikasini takomillashtirish ham alohida ahamiyatga ega.

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma’lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars

paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta’limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta’limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma’naviy boyitishdan iboratligi ta’kidlangan. Ta’limiy maqsad assosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.[Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi.Maqola. Davlayeva Malika Abraxmatovna. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs magistranti Eshkarayev Ulug‘bek Choriyevich.Ilmiy rahbar pedagogika fanlari doktori, dotsent]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma’lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Ijodkorlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, ijodiy fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan qaray olishni anglatadi. Ijodiy fikrlash- bu shunday fikrlashki, natijada ma’lum bir muammoni tubdan yangi yoki takomillashtirilgan yechimini topish demakdir. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalashning eng muhim nazariy va amaliy jihatlarini bilishimiz kerak. [Boshlang‘ich o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.Maqola. Jumayeva Habiba G‘afarovna Buxoro davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi]

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining ijtimoiy – hissiy rivojlantirishga doir olib boriladigan pedagogik ishning mazmun mohiyati juda muhim masaladir. Chunki bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarni ijtimoiy hayotning tobora

axborotlashuvi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining murakkablashuvi yosh avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni ijtimoiylashtirishni taqoza etmoqda. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining ijtimoiy munosabatlarini tog‘ri tashkil etishga tayyorlash kelajakda o‘ta murakkab jarayonda samarali faoliyat yurita olishlari uchun imkon beradi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o‘rgatish psixologik zo‘riqishlarga nisbatan bardoshli bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi. O‘quvchi uchun ijtimoiy munosabatlar subyektlari: ota-onalar.oila a’zolari,tengdoshlari,ustoz

Har qaysi yosh guruhiga tegishli bolalarni ijtimoiy munosabatlarga kirishishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaviy vazifalar mavjud.

O‘qituvchi har bir bolaning qobiliyatini alohida baholab borishi kerak. Keyinchalik jamoada hayot tajribasining to‘plashi natijasida «men», «meniki» tushunchasining o‘rnini «biz», «bizniki» degan tushunchalar egallaydi. Bu esa bolalarning o‘zini jamoa a’zosi deb tushunib olganidan va o‘z shaxsi manfaatini umumiyl maqsadga buysundira oladigan davridan boshlanadi. Yaxshi o‘rtoq bulish,- bu boshqalar bilan o‘zini bir qatorda qo‘yishi, ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, shu bilan birga sen yolg‘iz emassan, sen to‘g‘ringda boshqalar ham o‘ylaydi, senga boshqalar ham g‘amxo‘rlik qiladi degan ma’noni anglatadi.

Bolalar jamoasini shakllantirish uchun ma’lum shart - sharoitlar zarur hisoblashadi.

Bular:

- o‘quvchilar uchun muammoli vaziyatni tashkil etish;
- o‘quvchilarda o‘zaro ahillik, g‘amxo‘rlik, jamoatchilik, insoniylikni tarbiyalashga yordam beruvchi mashg‘ulotlar;
- bolalar uchun har xil qiziqarli faoliyatlarni tashkil etib borish; oila bilan mustahkam aloqa o‘rnatish,
- bolalarga xulq - atvor me’yorlari va qoidalarini o‘rgatib borish.
- o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy xayrixohlik muhitini yaratish.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish uchun sharoit va muhit yaratshimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilova N.G. Ajododlarimiz merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’limtarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. (2021).
2. Jumayeva Habiba G‘aforovna . Maqola.Boshlang‘ich o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.Maqola.
3. Davlayeva Malika Abraxmatovna, Eshkarayev Ulug‘bek Choriyevich Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi.Maqola.